



UDK: 398.21(575.1)

Bahromboy JUMANIYOZOV,

Filologiya fanlari nomzodi, Toshkent davlat transport universiteti

E-mail: bakhrambay.dzhumaniyozov1966@mail.ru

TDTTrU professori, f.f.d J.Ramatov taqrizi asosida

O'ZBEK XALQ OG'ZAKI IJODIDA OBRAZLAR TIPOLOGIYASI

Annotatsiya

Mazkur maqolada o'zbek xalq og'zaki ijodida uchraydigan obrazlarning tipologik xususiyatlari ilmiy-nazariy jihatdan tahlil qilinadi. Xususan, ertak, doston, afsona va mifologik janrlardagi bosh qahramon, salbiy va yordamchi obrazlarning badiiy-funksional vazifalari, ularning ramziy mazmuni va ijtimoiy-estetik ahamiyati yoritiladi. Obrazlarning xalq dunyoqarashi, qadriyatlar tizimi va axloqiy mezonlarni shakllantirishdagi o'rni ochib beriladi.

Kalit so'zlar: Obraz, tipologiya, xalq og'zaki ijodi, ertak, doston, mifologiya, bosh qahramon, salbiy obraz, yordamchi obraz, ramziy ma'no.

TIPOLOGY OF IMAGES IN UZBEK FOLK ORAL LITERATURE

Annotation

This article provides a scientific and theoretical analysis of the typological features of images found in Uzbek folk oral literature. In particular, it examines the artistic and functional roles of main characters, negative characters, and auxiliary images in fairy tales, epics, legends, and mythological genres, as well as their symbolic meanings and socio-aesthetic significance. The role of images in shaping the worldview, value system, and moral principles of the people is also highlighted.

Key words: Image, typology, folk oral literature, fairy tale, epic, mythology, main character, negative character, auxiliary image, symbolic meaning.

ТИПОЛОГИЯ ОБРАЗОВ В УЗБЕКСКОМ УСТНОМ НАРОДНОМ ТВОРЧЕСТВЕ

Аннотация

В данной статье проводится научно-теоретический анализ типологических особенностей образов, встречающихся в узбекском устном народном творчестве. В частности, рассматриваются художественно-функциональные роли главных героев, отрицательных и вспомогательных образов в сказках, эпосах, легендах и мифологических жанрах, а также их символическое содержание и социально-эстетическое значение. Раскрывается роль образов в формировании мировоззрения, системы ценностей и нравственных принципов народа.

Ключевые слова: Образ, типология, устное народное творчество, сказка, эпос, мифология, главный герой, отрицательный образ, вспомогательный образ, символическое значение.

Kirish. O'zbek xalq og'zaki ijodi xalqimizning ko'p asrlik turmush tarzi, dunyoqarashi, urf-odatlari, psixologiyasini turli janr namunalari, rang-barang obrazlar timsolida o'ziga xos poetik ifoda etib kelgan va kelmoqda.

Og'zaki ijodidagi har bir an'anaviy obraz, xalq tafakkuri singdirilgan poetik belgilar, uning boshqa xalqlar madaniyati bilan musharak va farqli xususiyatlarini ko'rsatuvchi badiiy-estetik hodisalaridan hisoblanadi.

Kishilik jamiyati qanday taraqqiyot bosqichlarini bosib o'tgan bo'lmasin, unda mundarija jihatidan umumiy va doimiy hodisalar yangicha sifat o'zgarishlari bilan takrorlanib turadi. Shu sababli folklor asarlarida juda qadimiy davr belgilari, xususan ijtimoiy-maishiy g'oyalari ma'lum darajada o'z poetik ifodasini topadi.

Rang-barang ko'rinishlarda namoyon bo'ladigan dunyo xalqlari poetik ijodida ham o'z badiiy ifodasini topgan ezgulik va yovuzlik kurashi ham ana shunday abadiy g'oyalardan biridir.

Yalmog'iz deyarli barcha jahon xalqlari folklorida mavjud bo'lgan personaj hisoblanadi. O'zbek folklorining ham epik asarlarida faol ishtirok etadigan "Yalmog'iz" obrazi xalqimizning ezgulik va yovuzlik kurashi haqidagi qarashlarini poetik ifodalashda muhim ahamiyatga ega.

Darhaqiqat, ilgari faqat tabiatning sirli kuchlarini o'zida aks ettirgan fantastik obrazlar keyinchalik ijtimoiy atributlarga

aylanib, tarixiy kuchlarning vakillari tusiga kirganliklari sababli yalmog'iz keyingi bosqichlarda turli qirralarni kashf etgandir. O'zbek folklorida uning ikki xil qiyofasi bo'rtib ko'rinadi. Biri, qahramonlarning homiysi, sehrli buyumlar in'om etuvchi, ikkinchisi esa yosh o'g'il va qizlarni o'g'irlovchi, odamlarni bandilikda saqlovchi, qahramonning xotini, sehrli buyumlarini oluvchi, qaylig'i yoki malikalarni yo'ldan uruvchi sifatida faoliyat ko'rsatadi.

Turli taraqqiyot davrlarini bosib o'tgani uchun xalq ijodida bu obrazni biz goh ijobiy, goh salbiy, goh murakkab poetik shamoilli sifatida uchratamiz.

O'zbek eposidagi yalmog'iz obrazini jiddiy o'rganish bu obraz zamirida mavjud ibtidoiy-jamoa tuzumi, quldorlik, feodalizm va keyingi davrlarga xos belgilarini, o'ziga xos xususiyatlarni aniqlash, badiiy talqinini belgilash imkonini beradi.

Yalmog'iz obrazining xalq eposidagi turli xil ko'rinishlari va talqinlari, bir-biriga zid, murakkab funksiyalarning mujassamlashgani bu personajning turli xil ijtimoiy davrlar, poetik mushohadalar mahsuli ekanligini ko'rsatadi.

Binobarin, o'zbek xalq eposi – ertak, doston va afsonalarda epik qahramonning yordamchisi yoxud raqibi – muxolifi bo'lmish bu g'ayritabiiy personajning qadimiy ildizlarini o'rganish, badiiy obraz sifatida qoliplashuvi, tadjriy

takomili, turlanishlari va tipologik xususiyatlarini badiiy-estetik tadqiq etish, ya'ni obraz evolyusiyasini belgilash o'zbek folklorshunosligi uchun dolzarb vazifalardan biri sanaladi.

Xalq eposidagi yalmog'iz obrazi tarixi – folkloridagi ezigulik va yovuzlik kurashining qisqacha tarixidir desak, xato bo'lmas.

Ana shu nazariy asosdan kelib chiqib, o'zbek eposidagi yalmog'iz obrazining tarixiy asoslarini aniqlash, uning boshqa xalqlar folkloridagi o'ziga yaqin obrazlar bilan tipologik xususiyatlarini, umumiyliklarini ko'rsatish, tadrijiy takomili, badiiy-estetik funksiyalarini tadqiq qilish tanlagan mavzuimizning bosh maqsadidir.

Turli xalqlar folkloridagi yalmog'iz va unga o'xshash salbiy obrazlarning tarixiy ildizlari, epik asarlar syujeti va kompozitsiyasida tutgan o'rni, ahamiyatini aniqlash folklorshunoslarni ko'pdan buyon qiziqtirib kelmoqda.

Yalmog'iz obrazining ilk ildizlari, ibtidoiy davrlar bilan bog'liqligini obrazning badiiy talqinida animistik qarash izlari saqlanib qolganligi ham tasdiqlaydi. Obrazning evolyusiyasi (tadrijiy o'zgarishi)da animistik e'tiqod boshdan-oyoq muhim rol o'ynagan.

Taniqli etnograflar E.B.Taylor. Dj.Frezer, S.A.Tokarevlar animizm madaniyatini ibtidoiy bosqichlaridan to hozirgi davrgacha saqlanib qolganligini ta'kidlaydilar[1].

Rus folklorshunoslari V.Ya.Propp, V.P.Anikin, N.V.Novikov. E.V.Pomeransea va boshqalar rus va slavyan xalqlari ertaklarini qiyosiy-tarixiy metod asosida tahlil qilib, ulardagi Баба-яра (yalmog'iz) obrazining tarixiy asoslari, folklor asarlaridagi o'rni haqida muhim mulohazalarni bayon qilganlar.

Yalmog'iz obrazi qardosh turkiy xalqlar, xususan, turkman va qozoq folklorshunosligida ham ma'lum darajada tadqiq etilgan, yalmog'iz va epik makon munosabatlari haqida e'tiborga loyiq fikrlar bayon qilingan[2].

O'zbek folklorshunosligida yalmog'iz obrazi haqidagi dastlabki ilmiy mulohazalar folklorshunos M.Afzalov tadqiqotlarida ko'zga tashlanadi. Olim o'zbek xalq ertaklari haqida ilk bor ilmiy kuzatishlari olib borib, xalq ertaklaridagi yalmog'iz obrazini ibtidoiy-mifologik obraz sifatida tahlil qilgan[3].

Folklorshunos K.Imomov, M.Afzalov mulohazalarini rivojlantirib o'zbek xalq eposidagi yalmog'iz obrazining paydo bo'lishi qadimiy animizm, muqaddas momo kulti hamda ajdolarimizning ishonch-e'tiqodlaridan bo'lgan shomoniylk an'analar bilan bog'liqligini ko'rsatgan[4].

Shuningdek, folklorshunos X.Egamovning yovuzlikni tashuvchi personajlar bo'lgan yalmog'iz kampir bilan ajdaho obrazining tipologik tahliliga bag'ishlangan kuzatishlari, o'zbek folkloridagi ajdarho obrazi yalmog'izning funksional jihatdan arxaik ko'rinishidir, degan ilmiy xulosasi ham bu personajning turkiy xalqlar folklori asosida tipologik jihatlarini atroflicha yoritishga asos bo'ladi[5]. Shuningdek, professor G'.Jalolovning shu personaj haqidagi qimmatli fikrlari ham diqqatga sazovordir.

Aytilgan mulohazalardan kelib chiqib, o'zbek xalq eposidagi yalmog'izning tarixiy asoslari, uning obraz sifatida shakllanish jarayoni, epik tur namunalariidagi mazmuni va turli xil ko'rinishlari, obraz evolyusiyasi, ijobiy va salbiy talqini, badiiy-estetik xususiyatlarini birinchi marta monografik yo'nalishda tadqiq qilish tanlangan mavzuimizning ilmiy yangiligini belgilaydi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. O'zbek eposidagi yalmog'iz obrazining tarixiy asoslarini aniqlash, uning boshqa xalqlar folkloridagi o'ziga yaqin obrazlar bilan tipologik xususiyatlarini, umumiyliklarini ko'rsatish, tadrijiy takomili, badiiy-estetik funksiyalarini tadqiq qilishda asosiy e'tiborni

quyidagi vazifalarni bajarishga qaratishni maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz:

o'zbek xalq eposidagi (doston va ertaklardagi) yalmog'iz obrazining paydo bo'lish tarixini yoritish, uning qadimiy davrlar bilan bog'liqligini tadqiq etish;

o'zbek eposidagi yalmog'iz obrazi va uning tadrijiy takomili bevosita qadimgi turkiy xalqlar mifologiyasi, an'anaviy dunyoqarshi, etnografiyasi bilan bog'liqligini epik asarlar tahliliga tayanib, ilmiy asoslash;

yalmog'iz atamasi etimologiyasini aniqlash va tarixiy taraqqiyot jarayonida ro'y bergan semantik o'zgarishlarini yoritish;

epik tur namunalariidagi yalmog'iz obrazining boshqa mifologik va demonologik obrazlar bilan o'xshash va farqli jihatlarini ko'rsatish;

yalmog'iz mifologik obrazining jodugar, maston, shum kampir, ajina, alvasti va o'gay ona obrazlari bilan qiyosiy tadqiq etgan holda umumiy va o'ziga xos jihatlarini aniqlash;

o'zbek eposidagi yalmog'iz obrazining hamda invariantlarining tarixiy-ma'rifiy, badiiy-estetik vazifalari va ahamiyatini ko'rsatish.

Folklor asarlaridagi aksariyat qahramonlar ismining o'z jismi va faoliyatiga mos bo'lishini nazarda tutgan holda, "yalmog'iz" atamasining tarixiy etimologiyasini quyidagicha tahlil qilish mumkin.

"Yalmog'iz" atamasi tashqi ko'rinishi tasviriga ko'ra faqat "yamlab yutadigan og'iz" deb talqin qilinsa, u salbiy obraz sifatidagina namoyon bo'ladi. Bu esa obrazning ilk tarixiy asoslariga zid keladi. Holbuki, ko'pgina xalqlar doston va ertaklarida yalmog'iz obrazining ikki qirrasini: epik qahramonga ko'makchi va homiyligi; hamda unga muxolif, ziyon yetkazuvchi sifatida ko'zga tashlanadi.

Tarixiy asoslarga ko'ra va etimologik jihatdan "yalmog'iz" atamasi uchta mustaqil so'z: "yal" – jasur, bahodir; "ma" – noma'lumlikni bildiruvchi; "g'iz" – qiz birikmasidan tashkil topgan bo'lib, ya'ni "Noma'lum jasur qiz" ma'nosini anglatadi.

Yana bir ma'no qirrasini "yalma", "og'iz", ya'ni "yamlab yutadigan og'iz".

Olimlarning qayd qilishlaricha, ibtidoiy davrlarda: "... dastlabki insonlar to'dasining boshchisi ayol bo'lgan" ligi, hamda "...farzand ko'rish ayol tufayli erlar ishtirokisiz deb tushunilgani sababli ertaklardagi Баба-яра dastlab, jinsi noma'lum bo'lgan" ligini aytadilar.

Ibtidoiy kishilar dastlab, ona urug'boshi bo'lgan paytlarda barcha ishlarda ayollarga bo'ysunishgan. Ularga sehrgar, ruhlar dunyosi bilan bog'liq kuch sifatida qarashgan. Bunday qarashlar turkiy xalqlar hayotida yuz yillab davom etgan shomoniylkga ishonch davrlarida ham mavjud bo'lgan.

Kuzatishlar o'zbek xalq doston va ertaklaridagi yalmog'iz, homiy kampir, sehrgarlar obrazi, mifologik tafakkur va shomonlik dunyoqarashlari bilan bog'liqligini ko'rsatadi.

"Olmos botir" va "Ilon og'a" ertaklaridagi homiy kampir va yalmog'iz obrazlarini atroflicha qiyosiy tahlil qilib, ular bir tarixiy ildiz bilan bog'liq degan xulosaga keldik. Bu ertaklarda kampirning qahramonga homiylk qilishi juda qadimgi davrlar ta'siri bo'lib, yalmog'izning qiz tizzasiga boshini qo'yib, qonini so'rishi bir qadimiy tushunchaning asrlar o'tishi bilan qayta turlangan ko'rinishdagi badiiy obrazdir. Shuningdek, ba'zi ertaklarda qahramonning olov izlab o'rmonga yoxud yalmog'iz makoniga borib qolishi, yalmog'izning olovni saqlovchi ekanligi ham obrazning juda qadimiylikni ko'rsatuvchi bir belgidir. Xuddi shuningdek, Zardushtiylikka qadar ham olov bilan bog'liq urf-odat va marosimlar o'tkazilganligi tarixdan ma'lum.

Tadqiqot metodologiyasi. O'zbek xalq ertaklari va dostonlaridagi yalmog'iz obrazi qiyosiy-tarixiy, tipologik va

badiiy-tahliliy metodlar asosida o'rganildi. Obrazning kelib chiqishi, mifologik ildizlari, ijobiy va salbiy talqinlari hamda boshqa sehrgar ayollar obrazlari bilan o'xshash va farqli jihatlari tahlil qilindi. Xalq ijodida pari va sehrgar ayollar obrazining yalmog'izga yaqinligi shundaki, ko'pgina dostonlarda yalmog'iz kampirlar parilarga ustoz, maslahatgo'y, homiy bo'lib keladilar.

Xulosa. Yalmog'iz obrazi o'zbek xalq epik asarlarida mifologik qiyofadan to eng so'ngi shum, qo'shmachi kampirlar darajasigacha takomillashib kelgan tipik personajdir. Bu obraz va uning turdoshlari asrlar bo'yi xalqning ezgulik va yovuzlik haqidagi qarashlarini poetik ifodalashda muhim rol o'ynagan va u epik asarlar syujeti shakllanishida uzilmas bir xalqani tashkil etib, rang-barang badiiy-estetik funksiyalarni bajargan.

O'zbek xalq ertaklari va dostonlaridagi yalmog'iz obrazining ilk tarixiy asoslari va tadrijiy takomilini atroflicha o'rganishimiz shuni ko'rsatadiki, uning obraz sifatidagi qiyofasi turli tarixiy davrlarga xos bir necha xil belgilarni singdirib olgan va murakkab personajga aylangan.

Ona urug'boshi hukmronligi davrlarida yalmog'iz ijobiy talqin qilinib, urug'-jamo'a kishilarining homiy ruhlar haqidagi qarashlari, urug'boshi ayollarga munosabatini ifodalagan.

Binobarin, bu obraz dastlab ijobiy talqin qilinib, bunday talqin izlari bizning davrimizgacha yetib kelgan.

Feodal-patriarxal tuzum to'la qaror topishi bilan dastlab mifologik personaj bo'lgan yalmog'iz o'z turdoshlari – jodugar, maston, shum kampirlar timsolida to'la salbiylashgan va asta-sekin hayotiy qiyofa kasb eta borgan.

Yalmog'iz obrazining yalmog'iz – jodugar – maston – shum kampir – qo'shmachi kampirlar shaklidagi va hatto, ba'zi bir yovuz xislatlari bilan o'gay onalar qiyofasidagi tadrijiy takomili o'zbek xalq eposi namunalari to'la o'z badiiy ifodasini topgandir.

Yalmog'iz obrazining tadrijiy takomilini belgilashda turli tarixiy davrlar, xalqning o'sha davrlar bilan bog'liq dunyoqarashi va og'zaki ijod namunalari asosiy mezon vazifasini o'taydi.

Xullas, jahon xalqlari uchun tipologik xususiyatga ega bo'lgan va o'zbek folklorining epik asarlarida eng ko'p ishtirok etadigan Yalmog'iz obrazi xalqimizning "Avesto"da bayon qilingandan boshlab, to shu kunimizgacha bo'lgan davrlardagi yovuzlik bilan ezgulikning beadam kurashi haqidagi qarashlarini ifoda etibgina qolmay, balki yovuzlik bilan ezgulik tushunchasining o'zbek eposida talqin etilish yo'l-yo'riqlarini ham ko'rsata olishi bilan juda katta ma'rifiy, tarixiy va badiiy-estetik ahamiyatga egadir.

ADABIYOTLAR

1. Тайлор Э.Б. Первобытная культура.-Мю: ИПЛ, 1989; Фрезер Дж.. Золотая ветвь.-М.; ИПЛ 1986; Токарев С.А. Ранние формы религии.-М.; ИПЛ, 1990.
2. Пропп В.Я. Исторические корни волшебной сказки.- Л.: Изд-во ЛГУ, 1946.
3. Сакали М.А. Туркменский сказочный эпос. – Ашхабад.1956; Каскабасов С.А. Казахская волшебная сказка.-Алма-Ата, 1972.
4. Афзалов М. Ўзбек халқ эртаклари.-Т.: Фан, 1964.-Б.57.
5. Имомов К. Ялмоғиз-жодугар образи талқинига доир Ислом шоир ва унинг халқ поэзиясида тутган ўрни.-Т.: Фан, 1979. -Б. 77-88.
6. Karimov V. O'zbek folklori va uning janrlari. – Toshkent: O'qituvchi, 2010. – 85–102-b. (kitob)
7. Олмос ботир. Ўзбек халқ эртаклари.-Т.: Камалак, 1981.-Б.4; Илон оға. Ўзбек халқ эртаклари.-Т.: Чўлпон, 1988.-Б.182.
8. Навоий асарлари учун қисқача луғат.-Т.: Ўқитувчи, 1993. Б.121.
9. Косвен М.С. Ибтидоий маданият тарихидан очерклар.-Т.: Фан, 1960.-Б.168
10. Пропп.В.Я. Исторические корни волшебной сказки.-Л.: Изд-во ЛГУ, 1946.-С.75.
11. Мурот Ўроз. Турк асотирлари. Сирли олам журнали 1991. №10.-Б.10.